

ABDULLA ORIPOV IJODIDA JAMIYAT VA XALQ HAYOTI TASVIRI

Shaymanova Yulduz Toshniyazovna
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek xalqining sevimli shoiri Abdulla Oripov ijodi haqida ma'lumot berilgan. Shoirning jamiyat, xalq hayoti bilan bog'liq lirik she'rlari tahlilga tortilib, munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: lirika, tahlil, talqin, lirik kechinma, lirik qahramon, peyzaj, ijtimoiy hayot, milliy ruh, ilhom, iqtidor.

Аннотация

В данной статье представлена информация о творчестве Абдуллы Орипова. Были проанализированы и прокомментированы лирические стихи поэта, связанные с обществом и народной жизнью.

Ключевые слова: лирика, анализ, интерпретация, лирический опыт, лирический герой, пейзаж, общественная жизнь, национальность, талант.

Abstract

This article provides information about the work of Abdulla Oripov. The poet's lyrical poems related to society and folk life were analyzed and commented on.

Keywords: lyrics, analysis, interpretation, lyrical experience, lyrical hero, landscape, public life, nationality, talent.

Badiiy adabiyotda she'riyat so'z san'atining boshqa turlaridan o'zining nafisligi, his-tuyg'ularga boyligi, obrazlilik, badiiy bo'yoqdorligi va ta'sirchanligi bilan ajralib turar ekan, shu sababdan ham inson qalbining tub-tubidan o'tilib chiqayotgan tug'yoni, voqelikka bo'lgan ehtirosli, ba'zida esa murosasiz munosabatining ifodasidir. Lirik qahramonning murakkab, ziddiyatli, turfa xil to'lg'onishlarga, his-tuyg'ularga, ehtiroslarga boy bo'lgan qalbisiz she'riyat chinakam badiyat



namunasiga aylanishi mumkin emas. Har bir shoir u yaratgan xalq va dar farzandi. Uning asarlarida xalq orzulari, umidlari, dardlari, armonlari mujassam bo'lsagina u buyuk qalb sohibi bo'la oladi. Ana shunday ulkan qalbni she'riyatiga jo aylagan iste'dodli, vatanparvar shoirlarimizdan biri Abdulla Oripovdir.

“Darhaqiqat, davr bilan mustahkam bog'langan shoir qanday mavzuda, qanday janr va formada she'r yozmasin, uning asarlariga vatanparvarlik ruhi singib ketadi. Ana shu ruh u yozgan asarlarning pafosini tashkil etadi” [5, 190].

Abdulla Oripovning ijodkorlar orasida birinchi bo'lib Vatan va xalqning og'riqli dardini qalamga olgani, hasrat chekib, ehtirosli kuylagani, millat qadr-qimmatini, sha'ni uchun kurashgani shundan. “Abdulla Oripov o'zbek she'riyatining ana shunday ulkan namoyandasidir. Yosh kezlaridanoq uning she'rlari ohorli mazmuni va hayratomuz badiiy kashfiyotlari bilan e'tirof qozondi. Uning ijodini o'zbek adabiyotining “bulutli osmon”ini yoritib yuborgan chaqmoqqa mengzash mumkin” [4, 225]. Abdulla Oripov adabiyotga lirik shoir sifatida kirib keldi. Albatta, shoirning ilk lirikasining ba'zilari uning o'ziga xos badiiy idrokka, kuchli ehtiroslarga egaligini, satrlari ravon, tabiiy, istioralari original ekanini ko'rsatdi. “Suv parisi”, “Kuz xayollari”, “Kuz manzaralari”, “Pushkin”, “Sen bahorni sog'inmadingmi”, “Buloq”, “Odamlar” she'rlari bunga dalil bo'la oladi. “Suv parisi”dan parcha:

Shoxlarda mezonlar yaltirar xira,
Poyida shivirlar mening kuylarim.
Do'stlarim, bular ham mezonmas sira,
Bu mening chuvalgan so'ngsiz o'ylarim.

Shoxlarda mezonlar yaltirar xira – yangi badiiy topilma. “Kuz manzaralari” sokin tuyg'ular, tiriklikning o'tkinchiligi to'g'risida falsafiy lirik mushohada. She'rda qandaydir ma'yuslik bor. Bu ma'yuslik shoir qalbiga yaqin bo'lgan. Ko'rinadiki, bu she'rda ham shoirning poetik tafakkuri tabiat va jamiyat hodisasini qiyos qilish orqali harakatga kelgan, shu qiyosdan go'zal obraz, katta ma'no va kuchli g'oya keltirib chiqarilgan.

Shoir she'rlarida vatanparvarlik, Vatanga sadoqat ruhi, tabiat go'zalligi, undan zavqlanish ufuq turadi. Xalq ruhida ozodlik, vatanparvarlik tuyg'ularini singdirishda she'riyatning roli va o'rni beqiyosdir. Shoir oddiy inson va xalq tashvishini unutmadi, bularni ustalik bilan asar matniga singdirdi, hislarini iztirob va hasrat darajasiga ko'tardi. “Yuzma-yuz”da o'qiyimiz:



Ohular qo‘ynimga kirsada qizdek,
Mening nigohimni tortadi takror
Million egatlarga sochilgan o‘zbek.
Garchand paxtazorga boqaman men ham,
Va lekin dilimda tashvish bor mening.
Mayliga, sho‘x qo‘shiq yaralsin tilda,
Rangpar singilginam, o‘ylayman seni.
Kuzgi rayhondayin ma’yus o‘sding sen,
Tabiat bermadi bilagingga kuch.
O‘zingday odamga qalliq tushding sen,
Na sog‘lik, na yordan yalchimading hech...

Bu satrlar xalqning dardi, armonlari mujassam edi. Misralarda o‘sha davr ruhi mujassam. Insonni o‘z-o‘ziga chetdan nazar tashlashga, rangpar qizlari paxta dalalarida ezilib, sog‘lig‘ini yo‘qotib, o‘zidek bir notavonga turmushga chiqib, umri shunday o‘tib ketayotganini anglashga, oxir-oqibat hayotini o‘zgartirishga chorlamayaptimi?

Yoki shoirning “Tilla baliqcha” she’riga murojaat qilsak, bu she’rda ham ijtimoiy dard bor. Lirik qahramon tuyg‘ulari bezovta. Bu bezovtalik zamirida inson taqdiri, uning kelajagidan tashvishlanish holati mujassam.

Tuxumdan chiqdiyu keltirib uni,
Shu loyqa hovuzga qarab otdilar.
Tashlandiq ushoq yeb o‘tadi kuni,
Xor-u xas xazonlar ustin yoptilar.
Dunyoda ko‘rgani shu tor hovuzcha,
Va mudroq tollarning achchiq xazoni.
Menga alam qilar tilla baliqcha,
Bir ko‘lmak hovuz deb bilar dunyoni.

Shoir bu kabi she’larida butun bir romanga, qissaga arziqli muammolarni o‘rtaga tashladi va ularni lirik qahramonning asab tolalaridek tarang tortilgan kechinmalari orqali ifodalashga muvaffaq bo‘ldi. Shoirning keyingi davr ijodida ham ma’naviyatni yuksaltirishga, ruhiyatni poklashga xizmat qiluvchi poetik tuyg‘ular yanada tiniqlashdi, falsafiy ruhi kuchaydi, ko‘lami kengaydi.



Abdulla Oripov har qanday koʻhna fikrga yangicha ruh, yangicha mazmun bagʻishlaydi. Hayot haqiqatini yuksak badiiy umumlashma darajasiga koʻtara oladi. Mana bu toʻrtlik ham fikrimizni tasdiqlaydi:

Soat millariga boqqaning zamon,
Kechmasmi koʻngildan bir gap nogahon:

Kimdir shu daqiqa dunyoga keldi,

Ketdi shu daqiqa qaysi bir inson.

Davr ijodkorga mavzular, tuygʻular berishi mumkin. Lekin hamma gap bu niyatni qay taxlitda ifodalay bilishda, roʻyobga chiqarishda. Abdulla Oripovning sanʼatkor ijodkor sifatidagi mahorati shundaki, lirik bir sheʼr doirasida umum ahamiyatli muammoni oʻq markazga olib chiqib, oʻz poetik niyatini real borliqning inʼikosi boʻlgan fikrlar va his-tuygʻular orqali jamiyat va alohida olingan bir shaxs olamining haqqoniy manzarasi va siyratini, sharhi va tahlilini satrlarga singdira oladi.

Istiqloq shoir ijodida yangi bosqichni boshlab berdi desak, aslo mubolagʻa boʻlmas. Abdulla Oripov sheʼrlari mudom mazmunan teranligi, shaklan mukammalligi bilan sheʼriyat ixlosmandlarining eʼtirofida. Abdulla Oripovning har bir sheʼrida oʻziga xos hayot falsafasi, katta bir ibratomuz fikrlar yotadi. Abdulla Oripov sheʼrlarida tevarak atrofdagi oddiy narsa hodisalarda ham qat-qat maʼno mavjudligi, har bir tirik jon ming bir tashvish, gʻam, shodlik, quvonch girdobida yashashini koʻrsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Т.: Ўзбекистон, 2002. –Б.560.
2. Орипов А. Танланган асарлар. Тўртинчи жилд. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2000. – Б. 388.
3. Орипов А. Saylanma. Т.: “Tafakkur qanoti” nashriyoti, 2019. – В.128.
4. Жабборов Н. Замон, мезон, шеърият. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2015. – Б. 338.
5. Шукуров Н. Бу олам сахнида. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – Б.244.
6. Baho mazmunini ifodalovchi birliklarning gap tarkibida ifodalanishi
7. S Yulduz. Qishloq Xoʻjaligi, Atrof-Muhit Va Barqaror Rivojlanish Milliy Konferensiyasi ...
8. Shaymanova, Y., & Qarshiboyeva, Z. (2023). Oʻzbek Tilidagi Neologizmlarning Tasnifi Classification Of Neologisms In The Uzbek



Language. Qishloq xo'jaligi, atrof-muhit va barqaror rivojlanish milliy konferensiyasi, 93-96.

9. Shaymanova, Y. T., & Qarshiboyeva, Z. A. (2022). Rus olimi an samoylovichning sharq tillarini o'rganishga qo'shgan hissasi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 24), 365-372.
10. Toshniyazovna, S. Y. (2023). Rus olimi AN Samoylovichning Sarq tillariga qo'shgan hissasi. *QISHLOQ XO'JALIGI, ATROF-MUHIT VA BARQAROR RIVOJLANISH MILLIY KONFERENSIYASI*, 38-42.
11. Toshniyazovna, S. Y., & Beknazarovna, E. M. (2023). Theoretical Substantiation of the Formation of the Language Competence of Students in the Course of Studying Syntactic Norms. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 18, 63-65.